

## INTERFAOL TA'LIMNING TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA O'QITISH METODIKASI.

*Olimjonova Shakhzoda Alisherovna.*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada siz interfaol nima ekanligi , interfaol o'qitish metodining hozirgi rivojlanayotgan raqamli davrdagi ahamiyati va xorijiy tilni, interfaol usulida o'qitish metodikasi bilan tanishib chiqasiz , ma'lumki hozirgi davrda ta'lim jarayonini hamda ta'lim sifatini rivojlantirish va ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda va bu maqolada siz ta'lim sohasiga o'zgacha yondashuv xususiyatiga ega bo'lgan interfaol ta'lim va tarbiya usullari, xorijiy tilni o'qitishda no'anaviy o'zgacha samaraliy xususiyatlarga ega bo'lgan yangicha yondashuvlar, kichik va katta yoshdagi o'quvchilarga xorijiy tilni interfaol metodika asosida o'qtish ularni e'tiborini dars jarayoniga qaratish qiziqish hamda ularni bilimini oshirish haqida keng ko'lamda ma'lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, passive, audiovizual, replika metodlari.

**Interfaol ta'lim** – bu o'qituvchi va o'quchining muntazam o'zaro hamkorligi, dars jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishi va amaliy ko'rgazmalar orqali o'qituvchilarning o'quvchilarni o'z o'quv dars jarayoniga e'tiborini qaratish vositasidir. Interfaol ta'lim usullari an'anaviy ma'ruza va dars o'tish kabi passiv usullardan farqli o'laroq o'quvchilarni nafaqat xorijiy tillarni balki, boshqa fanlarni ham oson va samarali o'rganishga yordam beradi, hamda o'quvchilarning dars jarayonida doimo faol ishtirok etishga da'vat etadi. Yodlash va passiv o'rganish ko'pincha fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishga xalqit berishi yoki to'sqinlik qilishi olimlar tomonidan aniqlangan. Interfaol ta'lim usullari esa o'quvchilarni ma'lumotni tahlil qilishiga, savollar berishiga va turli tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatishga undaydi. Interfaol ta'larning ko'p afzalliklari bor, jumladan ta'lim samaradorligini oshirish, faollikni oshirish va ommaviy nutq imkoniyatlarini oshirish orqali rivojlangan, ijtimoiy ko'nikmalarni yuqori pog'onaga chiqishga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Interfaol metod tarzidagi ta'lim jarayonlari asosan kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini hayotga tayyorlash uchun mo'ljallangan. Buning katta qismi ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Bular kattalarga jamiyatda ishlashga imkon beradigan beshta asosiy qobiliyatdir. Beshta asosiy ko'nikmalar:mas'uliyatli qarorlar

qabul qilish, hissiyotlarni boshqarish, o'z-o'zini anglash, sog'lom munosabatlarni o'rnatish va ijtimoiy xabardorlikdir.[<sup>1</sup>].

Ma'lum bo'lishicha, bolalar o'rganish jarayonida faolroq mashg'ulotlar bilan shug'ullansa, ularning asosiy ko'nikmalari sezilarli darajada kuchayadi. Interfaol usulidagi metodlar ta'lim jarayonidao'quvchilarga hamkorlik, guruh bo'lib ishlashni va birlashishni o'rgatadi va bolalarga bir-birlari bilan mazmunli muloqot qilishlari uchun ko'proq imkoniyat beradi. Vaqt o'tishi bilan, bu ularga keyingi hayotda duch keladigan ko'plab qiyinchiliklarga yaxshiroq moslashishga yordam beradi [1]. Xorijiy tilni o'qitishning interfaol usullari talabalarga nafaqat ma'lumot almashtirish balki ular o'rganayotgan tilda amaliy muloqot shakllantirish, suhbatdoshning replikalariga tezkor javob berishni o'rganishga yordam beradi. Hozirgi zamonamizda xorijiy tilni interfaol usulida o'rgatish metodlari juda keng rivojlanayotgan metodlardan biri bo'lib internet ma'lumotlariga ko'ra bulardan eng mashhurlariga: ROLE PLAYS (rolling o'yinlar), BRAINSTORMING (aqliy hujum), CASE-STUDY, METHOD PRESENTATION AND DISCUSSION (taqdimot va muhokamalar) kabilar kiradi. Shu kabi interfaol o'yinlar o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalar, mantiqiy fikirlashish, tahlil, sintez, taqoslash va umumlashtirish kabi turli xil intelektual faoliyat turlaning va ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishiga hamda o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Pastgi qatorda esa xorijiy tilni interfaol metodlarining eng mashhur, ommabop va samarali usullarni bilan tanishib chiqishingiz mumkin.

SAY YOR NAME/WHAT YOU LIKE ? (ismingni ayt/nimani yoqtirasan) Nomlanish o'yini darsni boshlashning haqiqatdanham yaxshi usulidir, bu o'yin ayniqsa yil boshida barcha yangi o'quvchilarning isimlarini eslab qolishga yordam beradi. Bu interfaol tarzdagi o'yinda doira bo'lib aylanib chiqing va bolalar oz ismlari hamda sevimli narsalaridan birini aytishini so'rang, keyingi bola o'zini tanishtirishda birinchi navbatda o'zidan oldin kelgan bolani tanishtirishi kerak va oxirgi bola guruhdagi barcha isimlarni va sevimli narsalarni eslab qolmaguncha davom ettirish kerak ! Buni katta yoshdagи talabalar uchun qiyinlashtirish mumkin, Masalan: ularning sevimli narsalarini ismlar bilan bir xil harfda boshlanishi kerak, yoki yosh o'quvchilar shunchaki ismlarni eslab qolishlari kerak.

GUESS THE FLASHCARDS(amaliy ko'rgazmalarni yoki rasmlarni taxmin qiling) bu o'yin juda oddiy lekin juda samarali, o'yin sharti quyidagicha: yashirin mavzuga doir rasmchalar to'plamini qo'lingizda ushlab turib asta sekin ularni birma-bir oching va o'quvchilarga tasvirlab bering, o'quvchilar esa bu nima ekanligini taxmin qilishadi, to'g'ri taxmin qilgan bola rasmni saqlab qoladi va o'yin oxiriga eng ko'p rasm to'plagan o'quvchi g'olib deb topiladi va albatta rag'batlantiriladi.

QUESTIONS(savolnoma). Bu o'yinda o'quvchilarga savollar tuzish va maqsadli tarzda so'z boyligini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi, boshqa o'quvchilar navbatma-navbat savol berishlari va ular nimani o'ylayotganligini taxmin qilishlari kerak o'quvchidan yashirin so'z haqida o'ylashlarini so'rang, bu o'yin yordamida ular bir birlari bilan ishlashni hamda guruhda ahllikning oshishiga hissa qo'shami, o'yinni dars mavzusiga moslashtirish uchun ularga mavzu bo'yincha maxsus lug'at berishingiz ham mumkin yoki ularga o'z tasavvurlarini ishlatishlatiga ruxsat berishingiz ham mumkin. COLOURS FIGHT (ranglar jangi) bu o'yin nomlanishidan sal noodatiyroq ko'rinishi mumkin ammo bu interfaol o'yin juda qiziqarli o'yinlar siragiga kiradi ayniqsa agarda o'quvchilar ranglar mavzusini o'qib bo'lgan yoki o'qib o'rganayotgan hollarda yangi ma'lumotlarni samarali tarzda eslab qolishga yoki takrorlashga katta xizmat ko'rsatadi o'yin sharti quyidagicha: bolalardi bir tomonga yig'asiz va ularga sinfxona yoki atrofida mavjud bo'lgan obiekt va buyumlarni rangini hisobga olgan holda xorijiy tilda rang nomini aytasiz va 10gacha sanaysiz bu vaqt mobaynida ular o'sha ranging yoki aytilgan rangga ega bo'lgan obiektni olib kelishlari lozim , dastlabki kelgan 3ta ishtirotkchi g'olib deb topiladi.

CHARDES(bu men) bu o'yin barcha yoshdagi o'quvchilar orasida mashhur bo'lib buni o'ynash uchun "men"so'zi kesilgan so'zlar bilan to'la konvertda yoki yosh o'quvchilar uchun rasm kartalari to'plamidan foydalaniladi. O'quvchiga yashirinch, so'z yoki kartani ko'rsating va undan so'ng undan so'zning oldida jum gina ijro etishini so'rang, boshqa bolalar esa ingliz tilida yoki boshqa xorijiy tilda bu maxfiy so'zni nima deb o'ylashayotganligini aytishadi . Bolalar bu borada juda raqobatbardosh bo'lishadi , bu o'yinda shuningdek deyarli har qanday so'z boyligiga (hayvonlar, sport, sevimli mashg'ulotlar, his tuyg'ular va shu kabi mavzularni o'rgatish hamda o'rganishga) moslashtirish mumkin. Shuning uchun u cheksiz foydalanish xususiyatiga ham egadir. Slam- bu yana bir ko'rgazmali kerak bo'ladigan o'yin bo'lib, bu o'yin kichik guruhlar bilan yaxshi o'ynaladi. O'yin sharti quyidagicha barcha ko'rgazmali, rasmlarni yerga qo'ying va bolalar ularning atrofiga to'plansin keyin esa ko'rgazmali rasmlarni nomini aytинг va bolalar qo'llarini rasmlri kartalarga qo'yishlarini so'rang , qo'lini birinchi bo'lib nomlangan so'zning rasmi tushirilgan qog'ozga qo'ygan o'quvchi eng tezkor deb topiladi va g'alaba qozonadi.Rasm ustiga turmasliklari va o'yin hali boshlanmasdan qo'llarini qo'ymasligi uchun so'z aytilmaguningizcha qo'llarini baland ushlab turishlarini so'rang.

Pantomime (pantonamiya) bu o'yin harakatli o'yin bo'lib bu o'yinda o'quvchilardan birini oldingizga chaqirasiz va unga ataladigan so'zning rasmini ko'rsatasiz yoki yozib ko'rsatsangiz ham bo'ladi, eng asosiysi bu so'zni o'sha o'quvchilardan boshqasi ko'rmasligi va eshitmasligi lozim so'zni ko'rgan o'quvchi uni boshqa o'quvchilarga harakat va mimikalar orqali tasvirlab beradi ,ammo, tasvirlab berish jarayonida har xil ovozlardan foydalanish taqiqlanadi, boshqa o'quvchilar

tasvirlab berayotgan o'quvchi nima haqida gapirmoqchiligin va o'sha so'zni taxmin qilishlari hamda topishlari kerak, bu juda qiziq va quvnoq o'yinlardan biri bo'lib bu o'yin yordamida siz nafaqat o'quvchilarning bilimini balki, ularning fantaziyalarini tasavvurlari haqida tushunchaga ega bo'lasiz hamda ularga optimistik quvnoq kayfiyat hadiya etasiz.

RUNNY NUMBERS/ALPHABET -Bu o'yinham interfaol o'yinlaring sirasiga kiradi. Bu o'yin juda quvnoq va tezkor o'yin bo'lib bu o'yining, asosan raqamlar va xarflar mavzusida o'ynash mumkin. O'yin sharti quyidagicha bu o'yinda sizga doska kerak bo'ladi, doskaga katta kvadrat chizasiz va kvadrat ichiga kichik katakchalar chizib katakchalarning ichiga raqam yoki xarflarni harxil chalkash xolatda yozib chiqasiz va o'quvchilaridan birini chaqirasiz , o'quvchi ma'lum vaqt mobaynida doskada yozilgan raqam yoki harflarni to'g'ri ketma ketlikda so'zlar hosil qilib chiqishi lozim. Bu o'yin bolalarni tezkorlikga va ziraklikga chorlaydi, o'yin oxirida esa eng tezkor o'quvchi g'olib deb topiladi.

Interfaol metodlari: "Baliq skeleti", "BBB", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarini ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. [4].

Xulosa qilib ayganda, kundan -kunga keng ko'lamda rivojlanib borayotgan davrda yosh avlodga davr talabiga mos darajada ma'lumotlarni yetkazib berish, til o'rgatish ularni fanga qiziqtirish bilim sohasining muhokamali qisimlaridan biri bo'lib kelmoqda shu kabi muammolar yechими sifatida siz bemalol interfaol ta'lim metodlarini namuna qilib olishingiz mumkin. Zero sifatli bilim nafaqat hozirgi kun, balki keljakning ham mustahkam poydevoridir , bu borada fransuz yozuvchilaridan biri, Emadon Abu o'z fikrini quyidagicha bildirgan "Sivilizatsiya tarixini olti so'z bilan ifodalash mumkin: Qancha ko'p bilsang shuncha ko'p qodirsan»<sup>[2]</sup>] xorijiy tilni interfaol metod usullari bilan o'rganish esa xuddi shu ma'noda o'quvchilarga yangi tilni u haqida ma'lumot va tushunchalarni o'rganishiga keng ko'lamda o'z hissasini qo'sha oladi va o'quvchilarning bilim salohiyatini, ta'lim darajasini hamda faolligini rivojlanishini yuqori darajada o'sishiga imkon yaratadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov S.S(2021)The innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences.
2. [http://multiurok.ru/.](http://multiurok.ru/)
3. [http://mussial.com/arctic meta/.](http://mussial.com/arctic meta/) <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/>.
4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
5. Zubaydova Nilufar Nematillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).